

KREATIV TA`LIM BERISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Pernebayeva Jazira Tansikbayevna

Namazova Balxiya Mirzabek qizi

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

*Bo'stonliq tuman 1- son kasb hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'limi
ustalari*

Annotatsiya: Pedagogning innovatsion faoliyati ijodiy izlanishlari, ta'lim shakli va mazmunini takomillashtirish yo'lidagi ilg'or g'oyalar yaratish, yangiliklar kashf etish salohiyatini namoyon qiladi. Ushbu maqolada kreativ ta`lim o'quvchining ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilganligi, ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta`limlarning qo'llanishi o'quvchida yaratuvchanlik, buniyodkorlik qobiliyatlarini o'sishiga olib kelishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kasb, kreativ ta`lim, o'quv material, fikr, maqsad, vazifa, axborot, texnologiya, loyihalash, ijodkorlik.

Bugun voyaga yetayotgan navqiron avlodni intellektual salohiyatlari, zukko qilib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish mutaxassislarning yuksak bilim darajasiga bevosita bog'liqdir. Barchamizga ma'lumki, XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa ta'lim tizimida tub islohotlar qilishni talab etayapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda farzandlarimiz har tomonlama, yani aqlan sog'lom, jismonanan baquvvat barkamol inson bo'lishi kerak. Olgan bilimlarini u oddiy ishchimi, ixtirochimi, tadbirkormi, qaysiki kasbda bo'lmasin bilimlarini xayotga jaib qila olishlari kerak. Bunda kreativ ta'limning o'rni katta. Kreativ ta`lim o'quvchining ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta`limlarning qo'llanishi o'quvchida yaratuvchanlik, buniyodkorlik qibiliyatlarini o'sishiga olib keladi.

An`anaviy shaklda olib boriladigan ta`lim o'quvchiga ilgaritdan ma'lum axborot, bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarni berish bilan chegaralanadi.

Lekin kreativ orientatsiyadagi darslar jarayonida qabul qiluvchi ob`ektdan ijodkor (kreativ) sub`ektga aylanadi. Predmetni (tomon, mazmuni) o'zlashtiruvchi o'ziga nisbatan yaratuvchanlik bilan yondoshish

asosida o'zlashtirib oladi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy qaray oladi. Olinayotgan o'quv materiali unga yangicha qarash, qo'shimcha materiallarni olish, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Ko'pincha bunday hollar o'zlashtirishga evristik yondashuvni shakllantiradi. Bu esa mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko'nikmasining faqat ijrochisigina bo'lib qolmay, balki o'z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.

Hozirgi kun ta`lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsn tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Mamlakat taraqqiyotida texnologiya, xom ashyo, jihozlar, energo resurslar, ekologik o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Umuman ta`lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta`lim, media ta`limini, ya`ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta`limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi mavjud ta`lim asosan ilgaridan mavjud bo'lgan an`anaviy didaktikaga asoslangan, ya`ni o'quv jarayonida ilgaridan fanga ma`lum bo'lgan bilimlarni o'qitish, o'rgatish, yetkazish bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ilgaridan ma`lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o'quvchining ta`lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ya`ni, ta`lim ilgaridan ma`lum predmet "avval hunar o'rgat, keyin shogird o'z xohishicha nimani ijod qilsa -qilaversin" yo'sinida ish tutish rasm bo'lgan.

Bunday holda bilim olish konsepsiysi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- bilim bilan tanishish, ma`lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-biridan ajrata olish;
- bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;
- bilim - malaka, olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish;
- bilim-transformatsiya, olgan bilimlarini, keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda ko'llash (ya`ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsn tarbiyalash - fanga ma`lum bo'lgan bilimlarning o'zinigina o'zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Hozirgi zamon ta`limining bosh va asosiy vazifasi - o'quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak.

Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina ob`ektning o`zi bilangina cheklanmay, ya`ni sub`ekt (bola)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya`ni ijodkorlikka bolalikdan o'rgatish mumkin va zarur. Umuman ulug' kashfiyot namoyondalari fikrlash algoritmni yaxshi o'zlashtirganlar, chuqur, atroficha bilimga ega bo'lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

Agar ta`lim jarayoni o'quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega bo'lib, o'quvchining faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi.

Ijodkorlik va madaniyatlilik o'quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham o'quv jarayonidan tashqari vaqtida "texnik ijodkorlik asoslari" yoki "texnik loyihalash ijodiy asoslari" ilmiy izlanish yo'nalishidagi to'garaklar tashkil etilsa, o'quvchining loyihalash ijodkorligi oshib boradi. Shuning uchun ham bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo'naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi.

Ta`lim jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar, yangi o'quv ob`ektlari o'quvchining tafakkurini abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlar yuritishga olib keladi. O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

- o'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash;

- o'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchi o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin;

- o'quv materillariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvchining ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

Umuman inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi.

O'quv jarayonida o'quvchi mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida tashkil etsa, o'quvchi uchun sekin-asta ko'nikma va malakaga aylana boradi. Bu jarayonda:

- O'quvchilarimizning qobiliyatidan qat'iy nazar ularning kreativ fikrlashga jalb qilish kerak. Chunonchi, oddiy bobodehqonga ham,

kulolchiga ham, temirchga ham vaxolanki barcha soxa egalariga kreativ fikrlash muhim ahamiyatga ega.

- Kelajakda u olim bo'ladimi, ixtirochimi, ilmiy xodim bo'ladimi unga olgan bilimlarining kreativ doirasidagi fikrlari ijodining poydevori bo'ladi. Bunung uchun o'qituvchi o'zi bu jarayonga tayyor bo'lishi kerak, zamonaviy o'qituvchi dars o'tishning yangi jaxon standartlariga mos keladigan ta'lim jarayoniga ega bo'lishi, barcha AKT lardan yetarli darajada foydalana olishlari kerak. Yani o'qutuvchi o'zi kreativ ta'limga tayyor bo'lishi kerak. Shundagina natijaga erisha olamiz.

- Har bir darsni albatta hayotga bog'lash ketak. O'quvchi darsdan olgan bilimlarini hayotga bog'layabdimi, demak unda kreativ fikrlash bor.

Professional ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ta'lim

muassasalarini ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish, ilm-fanning

so'ngi yutuqlarini amaliyatga joriy etish, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan

ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy

qadriyatlar ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi

vazifalarni amalga oshirish zarur. Ushbu vazifalarni hal etishda ta'lim

muassasalarining pedagogik jamoasi pedagogik faoliyatida tub burilish yasashi

zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.M.Egamberdieva, A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari moduli T.: Iste'dod, 2016.
2. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod, 2010
3. G.I.Xasanova "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzallikkleri". Jizzax: 2020
4. X.X.Abtobxodjayeva, Sh.A.Sharofiddinov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish. Uslubiy qo'llanma. OO'MTV huzuridagi PIKHTB hamda PKQTUMOI. Toshkent -2021.